

RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Narzullayev Nursulton Shuhrat o'g'li

Asomiddinov Asadbek Toshboy o'g'li

E-mail: nursultonnarzullayev1105@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Iqtisodiyot yo'nalishi talabalari.

Tel:+998932464437

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yondashuvlarning roli va ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada innovatsion mahsulot yaratishning asosiy yo'nalishlari, texnologik yangiliklarning bozor raqobatiga ta'siri va amaliy misollar orqali samaradorlik ko'rsatkichlari yoritilgan. Shuningdek, innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayonini joriy etishda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari ham ko'rib chiqilgan. Maqola natijalari asosida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *raqobatbardosh mahsulot, innovatsiya, ishlab chiqarish, strategiya, texnologik yangilik, investitsiya muhitini rivojlantirish, davlat siyosati, iqtisodiy o'sish.*

Abstract: *This article analyzes the role and importance of innovative approaches in the process of producing a competitive product. The article describes the main directions of creating innovative products, the impact of technological innovations on market competitiveness and indicators of efficiency through practical examples. It also discusses the challenges and solutions for the introduction of innovations into the production process. Based on the results of the article, proposals were developed to stimulate the production of competitive products.*

Key words: *competitive product, innovation, manufacturing, strategy and technological innovation, development of the investment climate, public policy, economic growth.*

Аннотация: *В этой статье анализируется роль и значение инновационных подходов в процессе производства конкурентоспособного продукта. В статье освещаются основные направления создания инновационной продукции, влияние технологических инноваций на рыночную конкурентоспособность и показатели эффективности с помощью практических примеров. Также рассмотрены проблемы внедрения инноваций в производственный процесс и их решения. На основе результатов исследования разработаны предложения по стимулированию производства конкурентоспособной продукции.*

Ключевые слова: *конкурентоспособный продукт, инновация, производство, стратегия, технологические новшества, развитие инвестиционного климата, государственной политики, экономический рост.*

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi raqobat kundankunga kuchayib bormoqda. Bu esa ishlab chiqaruvchilarni o'z mahsulotlarini yanada sifatli, xaridorgir va samarali tarzda ishlab chiqarishga undaydi. Raqobatbardosh mahsulot yaratish nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalarini, balki butun boshqaruv va marketing tizimini innovatsion asosda rivojlantirishni talab etadi. Innovatsion yondashuvlar mahsulotning funktsionalligi, dizayni, tannarxi va xizmat ko'rsatish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiyalarning mahsulot raqobatbardoshligiga ta'siri, amaliy tajribalar va istiqbolli yondashuvlar tahlil ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.


Raqobat tushunchasi shu qadar serqirradi, uni qandaydir yagona umumiy ta'rif bilan qamrab olish mumkin emas. «Raqobat» tushunchasini aniqlashtirishning ba'zi bir nuqtai nazarlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Raqobat tushunchasi turli izohli lug'at va ma'lumotnomalarda turlicha ta'riflanadi. Jumladan, "Yazuk biznesa" nomli lug'atda: "Raqobat (lotincha concurrere – to'qnashuv; inglizcha competition, rivalry) – bozorda ishtirok etayotgan korxonalar o'rtasidagi o'z mahsulotlarini sotishning eng qulay imkoniyatlarini ta'minlash, xaridorlarning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi o'zaro ta'sir, o'zaro aloqa va kurash iqtisodiy jarayonidir. Raqobat va monopoliya dialektik birlikni tashkil etib, doimo bozorda bir-birlariga qarama-qarshi turadilar", deb ifodalangan. Bundan ko'rinadiki, raqobatni nafaqat kurash, balki o'zaro ta'sir va aloqa jarayoni sifatida ham talqin etilgan.

Raqobat kurashi va uni harakatlantiruvchi kuchlar, monopoliyaga qarshi boshqaruv mexanizmlari haqida dastlabki to'laqonli nazariy qoidalar faqat XVIII asrning o'rtalariga kelib paydo bo'lgan.²⁹

Umumiy tarzda, raqobatning mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etuvchi jihatlarni quyidagi chizma yordamida tasvirlash mumkin (1-rasm).

Har bir bozor o'zining xususiyatlariga ega bo'lishiga qaramay, raqobatning mohiyati uning tabiati va intensivligini ochib berish va baholash imkonini beruvchi yagona kontsepsiya orqali ifodalanishi mumkin.

²⁹ Sh.Lutpidinov. Hozirgi zamon raqobat nazariyasi. O'quv uslubiy majmua. Namangan-2024. 9-bet



1-rasm. Raqobatning mohiyatini belgilab beruvchi asosiy jihatlar.³⁰

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi. Sh.Lutpidinov NamDU, –Yashil iqtisodiyot va barqaror “Biznes kafedrasida katta o‘qituvchisi (PhD)” ning "Hozirgi zamon raqobat nazariyasi" o‘quv uslubiy qo‘llanmada mahsulot raqobatbardoshligini ta‘minlashda narx, sifat va xaridor talabi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Mualliflar raqobat muhiti va korxonalar strategiyasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asosda tahlil qilganlar.

Raqobat bu huquqiy sub’ektlarni o‘zlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish jarayonida o‘zlarini mavqelarini saqlab qolish uchun kurashdir.³¹

Porterning raqobat ustunligi nazariyasi ushbu mavzuni chuqur tahlil qilishda asosiy nazariy manbalardan biridir. Uning "Porter guldastasi" modeli raqobatga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashda keng qo‘llaniladi. Porter strategiyasi - bu tashkilotning bozordagi raqobatbardosh ustunligini aniqlash konsepsiyasi. Iqtisodiy tadqiqotchi Maykl Porter 1980-yillarning boshida muvaffaqiyatli xulq-atvorni o‘z ichiga olgan raqobatbardosh xatti-harakatlarni o‘rgangan. Uning tadqiqotining maqsadi kompaniya o‘z raqobatchilariga nisbatan uzoq muddatli ustunlikka erishish uchun foydalanadigan turli usullar yoki usullarni aniqlash edi. Uning tadqiqoti natijasida muvaffaqiyatli kompaniyalar hayotiy muhim operatsion tartib-qoidalarni ishlab chiqish va raqobatchilarga nisbatan raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lish uchun foydalanadigan bir-biri bilan bog‘liq uchta tushunchaga ega bo‘ldi. Umumiy strategiyalar Maykl Porter tomonidan ishlab chiqilgan to‘rtta umumiy strategiya bo‘lib, kompaniya raqobatdosh ustunlikka erishish uchun foydalanadi.³²

Mamlakatimizda raqobat muhitini shakllantirish va innovatsion yondashish bo‘yicha bir qator hukumat qonun, qaror va farmonlari qabul qilingan, xususan, O‘zbekiston Respublikasi 2023 yil 3 iyul O‘RQ – 850 sonli “Raqobat to‘g‘risida”gi

³⁰ Sh.Lutpidinov. Hozirgi zamon raqobat nazariyasi. O‘quv uslubiy majmua. Namangan-2024. 9-bet

³¹ A.Qodirov, P.Z.Xashimov, N.G.Muminov, N.Y.Ortiqov, X.X.Rejapov.«Iqtisodiyot nazariyasi». Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. 1-qism. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, –Toshkent, «GRAND KONDOR PRINT» 2023. 222 bet.

³² Porter M. – “Milliy ustunlik” (The Competitive Advantage of Nations)

qonuniga asosan, raqobat — xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi,³³ deb ta'rif berilgan.

"Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarorlar raqobatbardosh mahsulot yaratishda davlat siyosatining o'рни va ahamiyatini ochib beradi. Bular rasmiy-huquqiy bazani mustahkamlab beradi.³⁴

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mahsulot ishlab chiqarishda raqobat — bu bir xil yoki o'xshash mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar (yoki tadbirkorlar) o'rtasida bozordagi xaridorlar e'tiborini jalb qilish, ularga ko'proq mahsulot sotish va foyda ko'rish uchun olib boriladigan iqtisodiy kurash ekanini anglashimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Fundamental tahlilning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvlar tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullar hamda abstrakt-mantiqiy fikrlash usulidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Raqobatbardoshlik – bu kompaniya, tarmoq yoki butun mamlakatning bozordagi talab va sharoitlarga moslashish qobiliyati. Bu tushuncha quyidagi uch darajada tahlil qilinadi. Mikroiqtisodiy darajada (firma) – mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi va marketing strategiyasi deb yuritiladi. Mezo darajada (tarmoq, soha) – sanoatning rivojlanishi, texnologik taraqqiyot, mehnat unumdorligi bo'lib hisoblanadi. Makroiqtisodiy darajada (mamlakat) – davlat siyosati, infratuzilma, investitsion muhit bo'lib hisoblanadi.

Tovar raqobatbardoshligini baholash asosan uch bosqichdan iborat. Bular quyidagilardan iborat:



2 – rasm. Tovar raqobatbardoshligini baholash³⁵

³³ O'zbekiston Respublikasi 2023 yil 3 iyul O'RQ – 850 sonli "Raqobat to'g'risida"gi qonuni

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni. Lex.uz

³⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Birinchi bosqich — bozorni tahlil etish va qiyos tarzida foydalanish uchun eng raqobatbardosh namuna-tovarni tanlash. Namunani tanlash raqobatbardoshlikni tahlil qilishning eng mas’uliyatli vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda xatolarga yo’l qo’yish jami ish natijalarini yo’qqa chiqarishi mumkin. Namuna tahlil qilinadigan tovar mansub bo’lgan tovarlar guruhidan, shu bozorga xos, keng doirada haridorlar xurmatini qozongan bo’lishi lozim.

Ikkinchi bosqich - ikkala tovarda qiyoslanadigan tomonlar majmuini belgilash. Shuni ta’kidlash lozimki, bozorga chiqarish mo’ljallanayotgan (loyihalanayotgan) tovar bilan bozorda bo’lgan tovarning parametrlari shunchaki oddiy qiyoslanadigan bo’lsa, raqobatchi tovarlar xaridorlar ehtiyojlarini qay darajada qondira olishi xamda xaridorlarning kelajakdagi talablariga qay darajada javob bera olishi masalasi e’tibordan chetda qoladi. Shu sababli har qanday loyiha eng mukammal ma’noda iste’molchilarning ehtiyojlarini aniq-ravshan ifodalashdan boshlanmog’i lozim.

Uchinchi bosqich - tashkiliy parametrlar- yetkazib berish shartlari, yetkazib berishning butligi, kafolat muddatlari, shartlari va boshqalar.

Tovarning iste’mol parametrlari majmuini aniqlash uning raqobatbardoshligini ta’minlash va tahlil qilishdagi eng muhimdir. Tovarning iste’mol parametrlari majmuini aniqlash deganda, tovarning xaridor (iste’molchi) uchun muhim bo’lgan, uning sifatini, foydaliligini, qulayligini va narxga nisbatan qiymatini belgilovchi asosiy xususiyatlari va ko’rsatkichlarini aniqlash tushuniladi.



3-rasm. Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvlar.³⁶

Mahsulot innovatsiyasi deganda yangi, noyob, mijoz ehtiyojiga mos, jozibali mahsulot ishlab chiqarish, texnologik innovatsiyaga ilg’or texnologiyalardan foydalanish,

³⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqarilgan.

bozor ehtiyojlariga moslashuv esa mijoz fikri va afzalliklariga tayangan holda mahsulotni idividuallashtirishini tushunishimiz mumkin. Sifat va ekologik yondashuvga keladigan bo'lsak, ekologik toza va sifatli mahsulotraqobatda ustunlikka erishadi. Qadoqlash va dizayn innovatsiyasi – mahsulot tashqi ko'rinishini takomillashtirish orqali xaridor e'tiborini jalb qilish va ishlab chiqarishda samaradorlikka erishish tushuniladi.

Porterning “Olmos modeli” (1990) ga ko'ra, raqobatbardoshlik quyidagi omillarga bog'liq bo'lib iqtisodiy infratuzilma –transport, logistika, kommunikatsiya tizimlari, inson kapitali va ta'lim tizimi –malakali kadrlar mavjudligi va ta'lim sifati, innovatsiyalar va texnologik rivojlanish –yangi mahsulot va texnologiyalar ishlab chiqish, davlat siyosati va institutsional barqarorlik –soliq yengilliklari, qonuniy me'yorlar, huquqiy islohotlar, xalqaro savdo va investitsiyalar –chet el kapitali va xorijiy bozor bilan integratsiya bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi. “Raqobat to'g'risida”gi qonun (2012) –monopoliyaga qarshi chora-tadbirlarni tartibga solish va “Xususiy sektorni rivojlantirish strategiyasi” (2017-2023) –tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va davlatning iqtisodiyotdagi rolini kamaytirish shular jumlasidandir.

1-jadval³⁷

O'zbekistonning xalqaro raqobatbardoshlik indeksi (2020-2024)

Yillar	Global Raqobatbardoshlik Indeksi (GCI) o'rni	Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi %	Innovatsion rivojlanish indeksi	Biznes muhiti ko'rsatkichi
2020	97	45.2	37.8	50.5
2021	94	46.5	39.2	52.0
2022	90	48.1	41.0	53.8
2023	87	49.7	42.5	55.1
2024	85	51.0	44.1	56.3

Bu jadval O'zbekistonning 2020-2024 yillardagi xalqaro raqobatbardoshlik indeksidagi taxminiy o'zgarishlarini aks ettiradi. Ma'lumotlar iqtisodiy samaradorlik, innovatsion rivojlanish va biznes muhiti ko'rsatkichlari bilan boyitilganligini alohida ta'kidlab o'tishni joiz deb topdik.

2-jadval³⁸

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda yuzaga keladigan muammo va ularning yechimlari

³⁷ Raqobat afzalliklari va raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi omillarning konseptual asoslari. Mirzayev Zarshed. Ijodkor o'qituvchi jurnali. 2025-yil, 5-fevral

³⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqarildi.

Muammo	Yechim
Raqobotbardosh mahsulot yaratishda malakali kadrlar yetishmasligi.	Ilmiy-tadqiqot institutlari va biznes hamkorligini yo'lga qo'yish
Davlat korxonalarining hukmronligi	Xususiy sektorni rivojlantirish, davlat aktivlarini xususiylashtirish
Raqobatga to'sqinlik qiluvchi byurokratiya	Tadbirkorlik faoliyatini soddalashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizda raqobatbardosh, istemolchilarning talabini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarishda muhtaram yurt boshimiz tomonidan juda keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Xorij mamlakatlaridan zamonaviy texnikalar yetib kelinmoqda, ammo mamlakatimiz bu sohaga endi etibor qaratayotganligi sababli bilimli hamda yangi texnologiyalardan foydalanishda ishchi hodimlar qiyintchilikka duch kelyapdi.

Shuning uchun nafaqat mamlakatimizdagi ilmiy-tadqiqot institutlari balki horij mamlakat texnologiyalarini o'rganib hodimlar va talabalarimizni malaka oshirishi uchun hamda innovatsion mahsulot ishlab chiqarish jarayonlariga ishtirokini taminlashimiz zarur.

Xulosa va takliflar

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bugungi globalashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonaning muvaffaqiyat kalitidir. Bu jarayonda texnologik yangilanish, malakali kadrlar, sifat nazorati, bozor talablariga moslashish va raqobatbardosh strategiyalar muhim o'rin tutadi. Muammolar qanchalik murakkab bo'lmasin, ularga innovatsion va tizimli yondashuvlar orqali samarali yechimlar topish mumkin.

Korxonalar zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sifatni nazorat qilish, iste'molchi ehtiyojlarini o'rganish hamda moliyaviy va kadrlar salohiyatidan to'g'ri foydalanish orqali o'z mahsulotlarini bozorda muvaffaqiyatli ilgari surishlari mumkin.

Shu asosda raqobatbardoshlikni ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikka erishish imkoni yaratiladi.

1. Innovatsion ishlab chiqarish klasterlarini yaratish orqali hududiy darajada korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va ta'lim muassasalarini birlashtirgan ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etadi va resurslardan samarali foydalaniladi, mahsulot sifati va innovatsion salohiyat oshadi hamda yangi ish o'rinlari yaratiladi.

2. Mahalliy brendlar uchun davlat qo'llovi tizimini kuchaytirish evasiga raqobatbardosh, lekin hali bozorda to'liq o'z o'rnini topmagan mahalliy mahsulotlarga soliq imtiyozlari, grantlar va eksport yordami berish eng to'g'ri yo'llardan biri bo'ladi.

Agar yuqoridagi taklif amalda qo'llanilsa birinchidan, mahsulotlar xalqaro bozorlarga chiqadi, ikkinchidan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar rag'batlantiriladi va uchinchidan, tashqi iqtisodiy aloqalar kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.Lutpidinov. Hozirgi zamon raqobat nazariyasi. O'quv uslubiy majmua. Namangan-2024. 9-bet.
2. Qodirov, P.Z.Xashimov, N.G.Muminov, N.Y.Ortiqov, X.X.Rejapov.«Iqtisodiyot nazariyasi». Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. I-qism. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, –Toshkent, «GRAND KONDOR PRINT» 2023. 222 bet.
3. Porter M. – “Milliy ustunlik” (The Competitive Advantage of Nations)
4. O`zbekiston Respublikasi 2023-yil 3-iyul O`RQ – 850 sonli “Raqobat to`g`risida”gi qonuni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni. Lex.uz
6. Raqobat afzalliklari va raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi omillarning konseptual asoslari. Mirzayev Zarshed. Ijodkor o'qituvchi jurnali. 2025-yil, 5-fevral.